

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI FAKULTETI

"PENSIYA ISHI" KAFEDRASI

KURS ISHI

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi budget tizimini isloh qilishning dolzarb muammolari

Bajardi: BPI-70 SH.Ishmuamedova

Tekshirdi: k.o'q. B.Nurmuxamedova

TOSHKENT-2014

REJA:

Kirish

1.O'zbekiston Respublikasida budget tizimidagi islohotlarning qonuniy-huquqiy asoslari

2.Davlat budgetining mamlakat yalpi ichki mahsulotini qayta taqsimlashdagi ahamiyati

3.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budget tizimidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardosh iqtisodiyotni qaror topdirish davrida moliya-budjet sohasida kechayotgan islohotlar o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek, “Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan asosiy maqsadimiz – boshlagan islohotlarimiz, iqtisodiyotimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirish, hayotimiz darajasi va sifatini izchil oshirib borishni ta’minlash, tenglar ichida teng bo‘lib, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashdan iboratdir”¹.

Bu borada, budjet islohotlari doirasida amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, xususan, budjet qonunchiligini takomillashtirish doirasida yangi Budjet Kodeksining qabul qilinishi, davlat budjeti g‘azna ijrosi mexanizmlarining bosqichma-bosqich budjet amaliyotiga tadbiq etilishi, davlat xaridi tizimining samarali tashkil etilishi va unga kichik biznes sub’ektlarini kengroq jalb qilish mexanizmlarining ishlab chiqilishi, budjetni o‘rta muddatli rejalashtirish va budjet mablag‘larini maqsadli sarflashda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish elementlarining joriy qilinayotganligi kabilar davlat budjetining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallab turganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat budjetining o‘rnini uning mablag‘laridan iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda foydalanish ko‘lamlari, investitsiyalarni qo‘shma moliyalashtirishdagi davlat budjetining xissasi, zararga ishlovchi ayrim korxonalar va tarmoqlarga beriladigan subsidiyalar hajmlari bilan izohlash ilmiy va nazariy jihatdan to‘g‘ri emas, albatta. Aslida davlat budjeti dastak va vositalaridan iqtisodiyot taraqqiyotining ildam o‘shish sur‘atlarini rag‘batlantirish, modernizatsiya va tarkibiy qayta qurishlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, asoslangan va samarali moliyaviy va iqtisodiy

¹ Karimov I. 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 2014 y. 30-bet.

imtiyozlar tizimini qo'llash, ijtimoiy sektorning samarali ishlashini ta'minlovchi zarur mablag'larni jamlash va ularni so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda oqilona sarflashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Mana shu holatlar davlat budjetining iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini kompleks o'rganishni talab etadi va tanlab olingan kurs ishimizning **dolzarbligini** belgilab beradi.

Kurs ishi mavzusining maqsadi va vazifalari. Ishimizning asosiy maqsadi - budjet tizimidagi islohotlar sharoitida davlat budjetining iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini mamlakat miqyosida kompleks o'rganishdan iborat.

Mavzuimizning maqsadidan kelib chiqadigan vazifalar quyidagilardan iborat:

- Budjet tizimii amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat budjetidan foydalanish amaliyotini tadqiq qilish;
- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda budjet mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat budjetidan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda foydalanishning dolzarb masalalarini tadqiq qilish asosida tegishli xulosalarni shakllantirish.

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUDJET TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING QONUNY-HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ko'plab soha va tarmoqlarida kengqamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan va ularning ijobiy natijalari respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ko'rsatkichlarida ijobiy aks etayotgan hozirgi davrda budjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida budjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, 2000 yil 14 dekabrda "Budjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri o'tgan davr mobaynida budjet amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ular:

- davlat budjeti ijrosi g'aznachilik tizimining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa nobudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- budjet tasnifi, budjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lib, budjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi "Budjet tizimi to'g'risida"gi hamda "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Budjet Kodeksida o'z aksini topdi.

Budjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilayotgan yangi Budjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, budjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, budjet mablag'laridan foydalanish

samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va budget to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Yangi Budget Kodeksi budget jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, budget amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, budget jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va budget jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksida "asosiy tushunchalar" moddasi (3-modda) mamlakat budget tizimini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi tushunchalar, shuningdek, "Budget tizimi to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilmagan bir qator yangi asosiy tushunchalar bilan boyitildi. Xususan, *budget jarayoni ishtirokchilari, budget mablag'larini taqsimlovchi, budget sohasidagi vakolatlar, budget tizimi budgetlari, budgetlararo transfertlar, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, davlat moliyaviy nazorati, davlat xaridlari, subsidiya, tartibga soluvchi daromadlar* kabi tushuncha va iboralarga ta'rif berildi. Bundan tashqari, "budget tashkiloti" va "budgetdan mablag' oluvchi" tushunchalariga alohida ta'rif berildi.

Kodeksda budget munosabatlarning bevosita ishtirokchilari bo'lgan budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari, ularning shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari tegishli bob va moddalarda o'z aksini topdi. Shuningdek, Budget Kodeksiga "Beg'araz yordam (insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'lari)" bo'yicha alohida bob kiritildi (64-68 moddalar) va bunda beg'araz yordam oluvchilar beg'araz yordam kelganligi va foydalanilganligi yuzasidan hisobot taqdim etishi shartligi belgilandi (67-modda).

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha 2004 yil 26 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat

budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi 664-II sonli Qonuni qabul qilingan edi. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalarining) va budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag‘larining g‘azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishga xizmat qildi. Mazkur qonunda davlat budjeti g‘azna ijrosini tashkil etish va g‘aznachilik faoliyati bilan bog‘liq holatlar o‘zining huquqiy asosiga ega bo‘ldi. Ushbu qonunda G‘aznachilikning maxsus hisobraqamlari va ularning amal qilish tartiblari belgilangan edi. Lekin 2014 yilda qabul qilingan Budjet Kodeksida amaldagi “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi hamda “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda o‘z aksini topdi. Xususan, yagona g‘azna hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i ekanligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatilganligi uchun haq olinmasligi Budjet Kodeksida belgilab qo‘yildi.



1-rasm. Budjet jarayoni ishtirokchilari¹

Budjet Kodeksining 3-moddasida keltirilishicha, “budjet jarayoni ishtirokchilari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar” bo‘lib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi (O‘RQ-360-son. 26.12.2013)ning 3-moddasi asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

(1-rasm), Kodeksda markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi va ijroiya organlarining hamda budjet jarayoni boshqa ishtirokchilarining vakolatlari tegishli moddalarda aniqlashtirildi.

Kodeksni o'rganish asosida uning "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonundan farqli ravishda quyidagi davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlari belgilab berilganligi va aniqlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- Hududiy moliya organlari;
- Budjet mablag'larini taqsimlovchilar;
- Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar;
- Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar.

Masalan, Budjet Kodeksining 30-moddasida hududiy moliya organlarining budjet sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari loyahasini tayyorlaydi hamda uni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- tegishli budjetga uning ijro etilishi jarayonida tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- budget tashkilotlariga va budget mablag‘lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini etkazadi;

- budget tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- belgilangan tartibda tegishli budgetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritadi;

- tegishli budgetlarning mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli budgetning ijrosi to‘g‘risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

- budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- tegishli budgetlar ijrosining budget hisobini yuritadi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli budgetlar daromadlari va xarajatlari balanslilikiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi va boshqalar.

Budget munosabatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari haqida so‘z borar ekan, xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, 2002 yildan boshlangan va bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinayotgan “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish loyihasi” doirasida budgetdan moliyalashtirish, budget tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish, g‘aznachilik orqali ular xarajatlari to‘lovini amalga oshirish tartiblariga bevosita taalluqli me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham takomillashib bormoqda. Budget munosabatlarining qonuniy-huquqiy va me’yoriy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar qatorida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

– O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi;

– Har moliya yili uchun qabul qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori (keyingi o‘zgarishlar bilan yangi tahriri);

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 19 noyabrda 2157-raqam bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” va boshqalar.

2. DAVLAT BUDJETNING MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTINI QAYTA TAQSIMLASHDAGI AHAMIYATI

Davlat budjeti yuridik kategoriya sifatida davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining shakllanish manbalarini va ishlatilish yo'nalishlarini ko'rsatuvchi davlatning yirik moliyaviy rejasi hisoblanadi. Har qanday moliyaviy reja kabi, davlat budjeti ham daromadlar va xarajatlar qismidan iborat. Budjetning daromadlari yalpi ichki mahsulot qiymatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi natijasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning budjetga tushishi natijasida shakllansa, o'z navbatida, budjet xarajatlari orqali YaIMning budjetga tushgan qismi qayta taqsimlanib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sarflanadi.

Budjet daromadlarining shakllanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Budjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Budjetning qayta taqsimlash funktsiyasi namoyon bo'lish shakli davlat budjetiga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalarning harakatida namoyon bo'ladi.

Miqdor jihatdan budjetning daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulotda davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadining umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda budjetda to'planadigan mablag'larning miqdori va ularni undirishning shakl va usullari belgilanadi.

Davlat budjetining daromadlarining YaIMni taqsimlashdagi o'rnini so'nggi yillar ma'lumotlari asosida tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2012 yil yakunlari bo'yicha YaIMga nisbatan davlat budjeti daromadlari 22,0 foizni tashkil etdi yoki 2011 yil ko'rsatkichlariga (21,9 foiz) nisbatan 0,1 f.b. miqdorida ko'p bo'lgan. 2013 yil hisob-kitoblariga ko'ra, budjet daromadlarining YaIMdagi ulushi 20,5 foizni tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 1,5 f.b. miqdorida kamayganini kuzatishimiz mumkin. Davlat budjeti daromadlari tuzilmasi soliqlarning asosiy guruhlariga bo'yicha YaIMga nisbatan quyidagi ko'rinishga ega (1-jadvalga qarang):

to'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlar YaIMga nisbatan 5,5-5,0 foizni, egri soliqlardan daromadlar 10,8-10,1 foizni, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i bo'yicha 3,4-3,0 foizni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha 0,6-0,4 foizni va boshqa daromadlar 1,7-1,9 foizni tashkil etdi.

1-jadval

Davlat budjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi¹

(YaIMga nisbatan foizda)

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y. (prong.)
Daromadlar - hammasi	22,1	21,9	22,0	20,5	21,2
To'g'ri (bevosita) soliqlar	5,5	5,7	5,5	5,0	5,5
Egri (bilvosita) soliqlar	11,1	10,6	10,8	10,1	10,9
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	3,4	3,4	3,4	3,0	3,2
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	0,6	0,6	0,6	0,4	0,5
Boshqa daromadlar	1,4	1,7	1,7	1,9	1,6

¹ "O'zbekiston iqtisodiyoti" Axborot-tahliliy byulleteni (2012-2013 yillar bo'yicha) ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099-son (25.12.2013) Qarorining tegishli ilovalari asosida tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti orqali YaIMning salmoqli qismi qayta taqsimlanadi. Davlat budjeti xarajatlari mamlakat YaIMning (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Davlat budjeti xarajatlarining YaIM da tutgan o‘rni tahlili

(mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2012 yil			2013 yil			2014 yil (prognoz)		
	Summa	Budjetga nisb.% da	YaIM ga nisb.% da	Summa	Budjetga nisb.% da	YaIM ga nisb.% da	Summa	Budjetga nisb.% da	YaIM ga nisb.% da
Yalpi ichki mahsulot	95589,8	---	100	120750,0	---	100	142150	---	100
Jamlanma budjet xarajatlari (Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiz)	33778,3	100	35,3	40111,8	100	33,2	48575,1	100	34,2
Davlat budjeti xarajatlari	21571,7	63,9	22,6	26223,7	65,4	21,7	31582,3	65,0	22,2

2012 yilda – 22,6 foizini;

2013 yilda – 21,7 foizini;

2014 yil prognozlari bo‘yicha esa 22,8 foizni tashkil qilgan.

Konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga kiruvchi davlat maqsadli jamg‘armalari bilan birgalikda esa xarajatlar YaIM ning:

2012 yilda – 35,3 foizini;

2013 yilda – 33,2 foizini;

2014 yil prognozlari bo‘yicha 34,2 foizini tashkil qilgan.

Budjet xarajatlarining mamlakat YaIMdagi ulushi ko‘rsatkichlarining (asosan, jamlanma budjetning YaIMdagi ulushi) birmuncha yuqori bo‘lishi O‘zbekiston ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotga ega ekanligidan hamda

davlatning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'siri ko'lami ma'lum darajada yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Keyingi yillar makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davr mobaynida jahondagi inqirozning salbiy ta'siriga qaramay, respublikamizda investitsiya faolligi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash chora-tadbirlarining ta'siri ahamiyatli bo'ldi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va h.k. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada Prezident I.Karimovning ushbu fikrlarini keltirish o'rinli: “Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. 2013 yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli

yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.”¹

2013 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi, 2012 yilda esa bu ko'rsatkich 22,8 foizni tashkil qilgan edi. Yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikatsiya ob'ektlari, qishloq xo'jaligi hamda meliorativ qurilishni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko'tarish masalalari ham 2012-2013 yillarda e'tibor markazida bo'ldi. Ushbu maqsadlarda 2009 yildan boshlab mamlakatimizning 159 ta qishloq tumanida namunaviy loyihalar asosida 900 dan ortiq yangi uy-joy massivlari barpo etildi, umumiy maydoni 4 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 33 ming 500 dan ziyod yakka tartibdagi uy-joy foydalanishga topshirildi. 732 kilometr asfalt qilingan avtomobil yo'llari, mingdan ortiq ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob'ektlari barpo etildi. 2013 yilda qishloq joylardagi 353 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 10 mingta shinam uy-joylar barpo etildi, bu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 17 foizga ko'pdir. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 650 million dollar qiymatidagi mablag' yo'naltirildi. Buning 106 million dollari Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'laridir².

Mamlakatimizdagi investitsiya jarayonlarining takomillashib borayotganligi namoyon etuvchi yana bir jihat – davlat budjetidan moliyalashtirish tarkibidagi nisbatlarning sezilarli darajada o'zgarib borayotganligi hisoblanadi. Investitsiya jarayonlariga davlat budjetidan moliyalashtirilgan mablag'lar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, agar 2005 yilda davlat budjetdan moliyalashtirilgan mablag'larning 36,2% respublika budjeti, 63,8% mahalliy budjet hisobiga ta'minlangan bo'lsa, 2012-2013 yillarda bu nisbat tegishli ravishda 35 va 65 foizni tashkil etmoqda. Bu esa investitsiya

¹ Karimov I. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. T.: O'zbekiston. 2014 y. 10-bet.

² Karimov I. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. T.: O'zbekiston. 2014 y. 17-bet.

jarayonlarini moliyalashtirishda mahalliy budjetlarning ishtiroki va roli kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Davlat budjetining xarajatlari tarkibida markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan xarajatlari alohida o'rin egallaydi va davlatning strategik maqsadlarini, ya'ni iqtisodiyotning hal qiluvchi, ustuvor hisoblangan tarmoqlari bo'lgan – neft, energetika, g'alla etishtirish, paxtani qayta ishlash sanoatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Bu maqsadlarga davlat budjetidan 2012 yilda 1059 mlrd. so'm, 2013 yilda 1439,6 mlrd. so'm hajmida mablag' ajratilgan bo'lib, 2014 yil prognozi ma'lumotlariga ko'ra esa markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga davlat budjetidan 825,0 mlrd. so'm hajmida mablag'larni ajratish rejalashtirilgan. (3-jadval)

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi¹

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil	
	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda
Davlat budjeti xarajatlari	21571	100	26223	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	12513	58	15147	59,2
Iqtisodiyot xarajatlari	2372	11,0	2750	10,6
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1059	4,9	1439	5,5
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari	820	3,8	1150	4,4
Boshqa xarajatlar	4805	22,3	5332,7	20,3

¹ O'zR Prezidentining 2011 yil 31 dekabrda PQ-1675-sonli, 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-sonli qarorlari va Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Manba: www.mf.uz

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadli yo‘nalishlaridan biri – aholining yuksak turmush darajasini ta’minlashdan iborat. Shunga ko‘ra, “2013 yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshdi, o‘rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko‘paydi”¹.

4-jadval

Davlat budjetining ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlari²

№	Ko‘rsatkichlar	Davlat budjeti jami xarajatlariga nisbatan %		
		2011 y.	2012 y.	2013 y.
1.	Davlat budjetining ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlari, shu jumladan:	59,5	58,0	59,2
2.	Ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari	50,2	49,2	50,2
3.	Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	9,3	8,8	6,1

Davlat budjetining mamlakat ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim, bu boradagi budjet siyosati ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirish uchun kuchli muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosatni olib borish, aholining turmush darajasini muttasil oshirishga qaratilgan. Shunga ko‘ra ta’kidlash mumkinki, (4-jadval) davlat budjetining ijtimoiy maqsadlardagi (ijtimoiy-madaniy sohalar va aholini ijtimoiy himoya qilish) xarajatlari 2011 yilda jami xarajatlarning 59,5 foizini, 2012 yilda 58,0 foizini, 2013 yilda 59,2 foizini tashkil etgan, 2014 yil istiqbollari bo‘yicha bu ko‘rsatkich 60 foizga yaqin bo‘lishi belgilangan.

¹ Karimov I. 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 2014 y. 19-bet.

² O‘zR Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda PQ-1449-sonli, 2011 yil 31 dekabrda PQ-1675-sonli, 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-sonli qarorlari va Moliya vazirligining hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Manba: www.mf.uz

3. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BUDJET TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Bugungi kunda davom etayotgan va tobora jiddiylashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi har bir mamlakat xukumati oldiga makroiqtisodiy barqarorlik va izchil o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan izchil iqtisodiy siyosatni yuritish vazifasini qo‘ymoqda. Bunda samarali iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan fiskal siyosat yuritish masalasi markaziy o‘rinni egallamoqda. Shu bilan birga umumiy iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashga yo‘naltirilgan yaxlit davlat siyosati bilan bog‘liq muammolar ham aynan davlatning fiskal siyosati instrumentlariga bog‘liq bo‘lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramasdan, mamlakatimizda kuzatilayotgan barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining ta‘minlanishida izchil olib borilayotgan budjet-soliq siyosatining ahamiyati g‘oyat yuksakdir. Buni o‘z navbatida keyingi yillarda kuzatilayotgan budjet profitsiti, rejalashtirilgan davlat budjeti daromad ko‘rsatkichlarining orttirib bajarilayotgani, davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida budjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin (5-jadval).

5-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, jami markazlashgan jamg‘armalar tarkibida davlat budjeti daromadlarining salmog‘i 2013 yilda 69,4 foizni, 2014 yil prognozlari bo‘yicha esa 60,9 foizni tashkil etishi mo‘ljallanmoqda. Bu o‘z navbatida davlat fiskal siyosatida davlat budjeti (maqsadli fondlarsiz) markaziy o‘ringa ega ekanini tasdiqlaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning ham ahamiyat yuqori bo‘lmoqda.

Jamlanma budjet daromadlarining asosiy parametrlari¹

mlrd.so'mda

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil (prognoz)	
		summa	foiz	summa	foiz	summa	foiz
1.	Davlat budjeti daromadlari	20614,1	57,1	25104,9	69,4	30160,8	60,9
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari	10499,8	29,1	13571,9	32,7	16720,7	33,2
3.	Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi daromadlari	210,0	0,6	227,5	0,5	272,1	0,5
4.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari	4747,6	13,2	2618,5	6,3	2335,9	4,7
	Jamlanma budjetning jami daromadlari	36071,5	100,0	41522,8	100,0	49489,5	100,0

Bu hol ular daromadlarining shakllanish ko'lamlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, maqsadli jamg'armalar daromadlari 2012 yilda jamlanma budjetning 29,1 foizini, 2013 yilda – 32,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yil prognozlari bo'yicha – 33,2 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarning samarli ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan jamg'armaning daromadlari 2012 yilda 210 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yil uchun bu jamg'armaning daromadlari 272,1 milliard so'mga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va budjet parametrlari to'g'risida"gi Qarorlari asosida umumlashtirildi.

rejalashtirilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yirik va strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish bilan bog‘liq islohotlarda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hissasi yuqori bo‘lmoqda. Uning daromadlarining so‘mdagi ekvivalenti 2014 yilda 2335,9 milliard so‘mni tashkil etishi ko‘zda tutilgan.

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin (6-jadval).

6-jadval

Davlat budjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi¹

(mlrd.so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2014 yil (prognoz)	jamiga nisbatan foizda
Davlat budjeti daromadlari, sh.j.	30160,8	100,0
Bevosita soliqlar	7790,4	25,8
Bilvosita soliqlar	15618,2	51,8
Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i	4521,4	15,0
Ustama foyda solig‘i	388,4	1,3
Boshqa daromadlar	1842,4	6,1

Davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko‘rinadiki, bilvosita soliqlarning jami budjet daromadlaridagi salmog‘i 51,8 foizni tashkil etishi ko‘zda tutilgan. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning fiskal ahamiyati yuqori bo‘lmoqda. Budjet daromadlarining qariyb to‘rt dan bir qismi esa to‘g‘ri soliqlar evaziga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabr PQ-2099-sonli Qarori asosida tayyorlandi.

shakllanadi. 2014 yil parametrlariga ko‘ra ular bo‘yicha tushumlar umumiy daromaddagi ulushining 25,8 foiz bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Davlat budjeti daromadlarining shakllanish samaradorligi va barqarorligi amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan xarajatlar ijrosining moddiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, davlat budjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma‘nodagi ifodasini o‘zida aks ettiradi. Buni quyidagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

7-jadval

Davlat budjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi¹

(mlrd.so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil (prognoz)	
	summa	foiz	summa	foiz
Davlat budjeti xarajatlari	25825,9	100	31582,3	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	15147,0	58,7	18783,4	59,5
Iqtisodiyot xarajatlari	2749,8	10,6	3385,3	10,7
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1439,6	5,6	1500,0	4,7
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	1149,8	4,5	1000,8	3,2
Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari			343,7	1,1
Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi			91,0	0,3
Boshqa xarajatlar	5337,7	20,7	6478,1	20,5

7-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat budjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining salmog‘i yuqori bo‘lmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2013 yilda jami budjet xarajatlarida 58,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yil uchun ushbu xarajatlarning jami budjet xarajatlaridagi ulushi 59,5 foizni tashkil etishi ko‘zda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013 yilgi budjet ijrosi hisobotlari (www/mf.uz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabr PQ-2099-sonli Qarori asosida tayyorlandi.

tutilgan. Demak, ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar nominal mazmunda va shuningdek, umumiy xarajatlar salmog'ida ham ortib bormoqda.


Amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining turmush farovonligini va daromadlarini izchil oshirib borish ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu sohadagi islohotlar 2014 yilda ham davom ettirilib, davlat budjetidan jami 2047,0 milliard so'm mablag' ayni shu maqsadlar uchun ajratilishi rejalashtirilgan.

Iqtisodiyotga sarflangan xarajatlar 2013 yilda 10,6 foizni tashkil etgan. 2013 yilga nisbatan 2014 yilda ushbu maqsadlarga 3385,3 milliard so'm ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, xarajatlarning 10,7 foizini tashkil qiladi.

Shuningdek, markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlarning budjetdagi ulushi kamayib borish bilan birga, absolyut summalarda ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarning tarkibiy tahliliga asoslangan holda ta'kidlash joizki, aholi turmush farovonligini oshirishdagi yanada ijobiy o'zgarishlarga erishish maqsadida budjet sohasi xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar miqdorini izchil oshirib borish kabi ijtimoiy sohadagi tadbirlarni moliyalashtirish bilan birga, jahonda global miqyosda avj olib borayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omili sifatida ichki talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlikning muhim begilaridan biri davlat budjetining profitsit bilan bajarilayotgani hisoblanadi. Xususan, keyingi yillarda davlat budjeti taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo'lsa-da, soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ortig'i bilan bajarilishi hamda davlat budjeti xarajatlarning manzilli va maqsadli sarflanishining ta'minlanishi natijasida budjet profitsit bilan ijro etilmoqda. Buni quyidagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. 2000-2013 yillarda davlat budjetining holati to'g'risida ma'lumot¹

Davlat budjeti 2009 yilda YaIMga nisbatan 0,2 foizlik profitsit bilan ijro etilgan bo'lsa, 2012 yilda ushbu ko'rsatkich YaIMga nisbatan 0,4 foizni tashkil etgan. Qiyin kechgan 2013 yilda ham budjet profitsitining 0,3 foizlik ko'rsatkichiga erishishga muvaffaq bo'lingan. Bunda daromad tushumlari bo'yicha reja ko'rsatkichlari oshirib bajarilayotgani va shuningdek, budjet ijrosi g'aznachilik tizimining samarali faoliyati natijasida byujet mablag'larining maksimal darajada iqtisod qilinayotgani muhim o'rin egallaydi. 2012-2014 yillarda davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha isohotlar davom ettirildi. Xususan, 2012 yilda barcha darajadagi hududiy g'azna hisobvaraqlari o'rniga yagona g'azna hisobvarag'i joriy etildi. Bu o'z navbatida davlat moliyasi tizimidagi barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etadigan asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

¹O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

XULOSA

Ma'lumki, 2014 yil 17 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2013 yil yakunlari va 2014 yil istiqbollarga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" nomli ma'ruza qildilar va unda bugungi kundagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolar ochib berildi hamda "o'zini oqlagan islohotlar strategiyasi"ning eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur kurs ishida asosan ana shu ustuvor yo'nalishlar vazifalarini bajarishda, shuningdek, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat budjetining o'rni, ahamiyati, davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi va samarali iqtisodiy dastak sifatidagi funksiyalari, ularning amalda namoyon bo'lish shakllari, investitsion va innovatsion faollikni davlat tomonidan rag'batlantirish vositalarining amal qilishi o'rganildi. Izlanishlarimiz asosida shakllangan **hulosa va takliflarimiz** quyidagilardan iborat:

- budjet ijrosining bir necha yillik ijrosi ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, davlat budjeti hali ham fuqarolarning Konstitutsiyamiz bilan kafolatlangan huquqlarini amalga oshirish tadbirlarining asosiy moliyaviy bazasi bo'lib kelmoqda. 2011-2014 yil budjet parametrlari tahlili asosida davlat budjetining qariyb 59-59,6 foiz mablag'lari ijtimoiy sohalarni saqlash va aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilganligini ko'rish mumkin.

- davlat budjeti (budjetdan tashqari fondlar bilan birgalikda) orqali mamlakatimizda ishlab chiqarilgan YaIMning qariyb 33-35 foizi qayta taqsimlanadi. Shunday ekan, barcha jamiyat a'zolarining mablag'lari hisobiga shakllanayotgan budjet mablag'larini samarali ishlatish, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy muammolarni yumshatishga, aholi bandligini oshirishga, unga etarli yashash va mehnat sharoitlarini yaratishga, mehnat haqi darajasini oshirishga va bu bilan mehnatga mas'uliyat va qiziqishni rag'batlantirishga sarflash lozim.

- Respublikamizda izchil budget-soliq siyosatining amalga oshirilishi, soliq yukini kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi soliq to'lovchilarda ishlab chiqarishni kengaytirishga sharoit yaratilishi, ishlab topilgan va ularning o'zlarida qoldirilayotgan mablag'larning reinvestitsiya qilinishi oqibatida qo'shimcha soliq ob'ektlarining paydo bo'lishi hisobiga nafaqat budgetdagi yo'qotishlar o'rnining qoplanishi, balki soliq to'lovchilarning qo'shimcha daromadlarga ega bo'lib, ishlab chiqarish imkoniyatining oshishiga olib keladi. Shuni hisobga olgan xolda, soliq yukini bundan keyin ham pasaytirib borish, soliq og'irligini optimal ravishda ishlab chiqarishdan iste'molga ko'chirish maqsadga muvofiq bo'lardi.

- budget mablag'larining barqaror shakllanishi iqtisodiyot real sektoridagi moliyaviy ahvolga bevosita bog'liq. Lekin joylardagi tadbirkorlarimiz qishloq joylarda energiya ta'minotining beqarorligiga, ishlab chiqarish va yo'l infratuzilmasining kerakli darajada rivojlanmaganiga, tekshiruvlarning ko'pligiga, shuningdek, joylarda ijro intizomining nisbatan pastligiga haligacha duch kelmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun turli ruxsatnomalar berish muddatlarini yanada qisqartirish, ularning tartib-taomillarini soddalashtirish va arzonlashtirish, tadbirkorlik yo'lidagi ortiqcha byurokratik g'ovlarni bartaraf etish va bunday holatlarga yo'l qo'ymaslikni jiddiy nazoratga olish zarur, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, jahon mamlakatlari inqirozdan chiqish uchun milliardlab mablag'larni sarflayotgan bir paytda bizning mamlakatimizda bu mablag'larni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilashga safarbar etilishi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining oshishiga va shu bilan birga, taqchilliksiz budgetning bo'lishiga imkon beradi. Barcha davlat va nodavlat manbalarni safarbar etgan holda ijtimoiy sohani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari va sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston. 2001-39 b. (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan)
2. O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y. №52-I-son.
3. “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-1675-son. 30.12.2011.
4. “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-1887-son. 25.12.2012.
5. “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori. PQ-2099-son. 25.12.2013.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T: O‘zbekiston. 2009. – 56 b.
7. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston. 2014 y. 32 b.
8. Karimov I.A. “Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan”. Ilmiy-ommabop risola. T.: O‘zbekiston. 2011 y. 200 b.
9. Burxonov U. Davlat xaridi. T.:«infoCOM.uz». 2010. 140 b.
10. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA” - 2010, 595 b.
11. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA” - 2012, 598 b.

12. Malikov T., Jalilov P., Budget-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.
13. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T.: “VNTSHINVESTPROM”, 2013. 224b.
14. Srojiddinova Z. Budjetlararo munosabatlar. T.: «infoCOM.uz». 2010. 156 b.
15. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:«infoCOM.uz». 2010. 480b.
16. Eshnazarov T.Sh. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2012. 304 b.
17. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2012. 260 b.
18. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. 448b.
19. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlar: statistik to‘plam. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011.
20. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. Toshkent-2013.
21. Internet saytlari
www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)
www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti)
www.undp.uz (BMTTD rasmiy sayti)
www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi)
www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda budjet islohotlari loyihasi sayti)
www.statistics.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi rasmiy sayti)